



**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy
**ANJUMAN
MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI BUXORO
VILOYATI BO‘LIMI**

**TOJIKISTON RESPUBLIKASI BOBOJON G‘OFUROV
NOMIDAGI**

XO‘JAND DAVLAT UNIVERSITETI

TURKIYA JUMHURIYATI HACETEPE UNIVERSITETI

**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**

**mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

**Buxoro
“Ilm ziyosi”
2024**

KBK: 84.3(0)7.724
UDS: 821.557.632.2.4.5.41
K-54

“Buxoro adabiy muhiti: kecha va bugun” mavzusidagi AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari. – Buxoro: “Ilm ziyosi”, 2024. – 632 b.

Buxoro davlat universiteti rektorining 2024-yil 15-avgustdagi 509-U sonli buyrug‘i asosida Buxoro davlat universitetida o‘tkazilgan “Buxoro adabiy muhiti: kecha va bugun” mavzusidagi AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari besh bo‘limdan iborat bo‘lib, uning har bir bo‘limida Buxoro adabiy muhitining o‘tmishi va buguniga doir dolzarb muammolari qamrab olingan. 200 ga yaqin maqolalarni o‘z tarkibiga olgan mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, mutaxassis va tadqiqotchilar, doktorant va izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrirlar:

Q.To‘xsanov – BuxDU professori
Sh.Davronova – BuxDU professori

Tahrir hay’ati:

H.Eshonqulov, D.Rajabov, G‘.Murodov, Sh. Axmedova, D.O‘rayeva,
D.Quvvatova, Sh.Hayitov, M.Rajabova, N.Bekova, Z.Amonova

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

N.Qodirova, R.Rajabova, N.Norova

Taqrizchilar:

Laylo Sharipova– filologiya fanlari doktori, professor
Hayot Latipov– filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

ISBN 978-9910-745-39-3

© Buxoro davlat universiteti, 2024
© “Fan ziyosi”, 2024

4. Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати
5. Махаммადийев Х.Л. Alisher Navoiy asarlarida kiyim-kechak nomlari tahlili haqida. Samdu. Ilmiy axborotnoma. 2021. 2-son, 41b.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.
7. Zhiyankulovna, J.L. (2024). kA LINGUOPOETIC AND LINGUOCULTURAL OF ETHNONYMS IN NAVOI'S WORKS. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(06).

ILMIY FANTASTIKANING ASOSIY VAZIFASI

Umarova Mohim Faxriddin qizi,
BuxDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Fantastika janri xayoliy g'oyalarga asoslanadi va odatda, jamiyatda his-tuyg'ularga beriluvchan kitobxonlarning diqqat markazida bo'ladi. Xayoliy g'oyalarga asoslanuvchi fantastika sof mohiyatiga ko'ra realizmning aksi, biroq uning ba'zi o'rinlari, qirralari realizm bilan qorishib ham ketadi. Fantastikaning ildizlari mifologik tushunchalar, insoniyatning so'ngsiz orzu-umidlari, cheksiz xayolot dunyosi, tasavvurlari, fantaziyasi bilan bog'lanadi. Shu bois fantastik tasavvurlar afsonalarda, asotir-u ertaklarda, lof-u latifalarda o'z aksini topadi. Badiiy adabiyotda fantastikasiz mazkur janrlarni tasavvur etib bo'lmaydi.*

Kalit so'zlar: *fantastik tasavvurlar, ilmiy fantastika, ilmiy fantastikaning tematikasi*

Аннотация: *Жанр фэнтези основан на творческих идеях и обычно ориентирован на читателей, чувствительных к эмоциям в обществе. Художественная литература, основанная на воображаемых идеях, противоположна реализму по своей чистой сущности, но некоторые ее места и стороны примешаны к реализму. Корни фэнтези связаны с мифологическими представлениями, бесконечными мечтами и надеждами человечества, миром бесконечного воображения, воображения и фантазии. Поэтому фантастические фантазии отражаются в легендах, сказках и анекдотах. В художественной литературе эти жанры невозможно представить без художественной литературы.*

Ключевые слова: *фэнтези, научная фантастика, научно-фантастические темы*

Annotation: *The fantasy genre is based on creative ideas and is usually aimed at readers who are sensitive to emotions in society. Fiction based on imaginary ideas is the opposite of realism in its pure essence, but some parts and aspects of it are mixed with realism. The roots of fantasy are associated with mythological ideas, the endless dreams and hopes of humanity, the world of endless imagination, imagination and imagination. Therefore, fantastic fantasies are reflected in legends, fairy tales and anecdotes. In fiction, these genres cannot be imagined without fiction.*

Key words: *fantasy, science fiction, sci-fi themes*

Inson tasavvurida paydo bo'lgan va, ayni paytda, inson zotini hayron-u lol qoldira oladigan xayoliy obrazlar, ajabtovur voqea-hodisalar, aqlga sig'mas to'qima

holatlar, umuman, ajoyibot-u g'aroyibotlar olami badiiy asarlarda turmush voqeliklariga, hayotiy haqiqatlarga, hozirgacha ro'y bermagan, biroq ro'y berishi mumkin bo'lgan holatlarga qarama-qarshi qo'yib tasvirlanadi. Fantastikaning badiiy yoki ilmiy adabiyot, san'atning boshqa tur va janrlari(rassomchilik, haykaltaroshlik, kino va sh. k.lar)dan farqi shundaki, uning tasvir, ifoda yoki bayon sohasi amalda mavjud bo'lgan real turmush, haqqoniy hayot emas, balki turmush haqidagi umumiy tasavvurlardan kelib chiqadigan hayot tasviridir. Shuning uchun fantastikada hamma jonli va jonsiz narsa, oddiy hodisalar jiddiy o'zgargan, bo'rttirilgan, istalgan kishini taajjublantiradigan, hayratga soladigan darajada bo'ladi. Fantastikaning maqsad va vazifalari faqat inson orzusini emas, balki kelajakda kutiladigan xatardan ogoh qilish, estetik zavq berish hamdir [7].

Fantastika, ko'pincha, xalq og'zaki ijodiga tegishli janrlarda uchrashi bizga ma'lum. Lof, latifa, doston, ertaklarda, asotir-u afsonalarda ham fantastik holatlarning yuqori darajasini, o'ta bo'rttirilgan shakllarini kuzatish mumkin. Masalan, bu borada o'zbek xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi bo'lmish "Alpomish", qirg'iz eposi "Manas", ingliz folklori namunasi "Beovulf" kabi yuzlab asarlarni sanashimiz o'rinli.

Muayyan ijodkorlarning, chunonchi, Gomerning "Illiada" dostoni, Migel de Servantesning "Don Kixot" romani, Fransua Rablening "Gargantuya yoki Pantagryuel" hajviy asari, Herbert Uellsning "Doktor Moro oroli", "Ko'rinmas odam", "Vaqt mashinasi", "Bashariyatning tug'ilishi" asarlari, Ayzek Azimovning "Koinot odamlari", "Robbi", "Yolg'onchi" asarlari, Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" sarguzasht asari, Aligeri Dantening «Ilohiy komediya»si, Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari", Iogann Gyotening "Faust" tragediyasi, Mixail Bulgakovning "Ityurak" qissasi, Hojiakbar Shayxovning "Sirli nur" va boshqa yuzlab sara asarlari fantastika yo'nalishining ajoyib namunalari hisoblanadi. Korney Chukovskiyning "Telefon", "Fedora", "Kirpilar kuladi" kabi o'nlab ertaklari, Aleksandr Kazansevning "Yonuvchi orol" romani, Aleksandr Grinning "Alvon yelkanlar", "Yashil chiroq" asarlari, Hans Kristian Andersenning "Chaqmoqtosh", "Boychechak", "Qor malikasi" kabi ertaklari ham kattalarga va bolalarga mos fantastika janrida yozilgan. (Biz bu ro'yxatni uzoq davom ettirishimiz mumkin.)

Hozirgi zamon chet el fantastikasi namoyandalari sifatida yaponiyalik Kabo Abe ("Qumdagi xotin" romani muallifi), amerikalik Ayzek Azimov ("Koinot oqimlari", "Mangulik intihosi" romanlari muallifi), polshalik Stanislav Lem ("Solyaris" romani muallifi), rossiyalik Aleksandr Belyaev ("Odam-amfibiya" romani muallifi), qozog'istonlik Spartak Ahmedov ("Shoh olmosining sarguzashtlari" asari muallifi) va boshqalarni ko'rsatish mumkin [6].

Badiiy fantastika janriga bo'lgan moyillik inson jamiyatining barcha madaniyatlarga xos. Chunonchi, qadimgi yunon mifologiyasi va og'zaki ijodiyozma adabiyotning asosiy manbayi bo'lgan eng qadimgi yodgorliklar—Homerning "Illiada" va "Odisseya" dostonlari, Ovidiyning "Metomorfoza"sida yoki o'zbek xalq og'zaki ijodining qadimgi namunasi "Alpomish" dostonidayoq, mir Alisher

Navoiyning “Xamsa” dostonlarida ham fantastika mativlari bo‘rtib turadi. Shuning uchun fantastikaning yuzaga kelish vaqti va o‘rni haqida aniq gap aytish mushkul.

Masalan, yunon adabiyotida yer yuzining hukmronlari qabilida Olimp ma’budalarini yaratishi; Zevs – momaqaldiroq hamda bulutlar sultoni, ma’udlar ma’budi ekanligi; Poseydon – dengizlar hukmroni; Aid – oxirat hoqoni; Zevsning rafiqasi Gera – osmon ma’budasi, kelin-kuyovlar rahnomosi ekanligi yoki Geraning birinchi o‘g‘li Gefest – otash ma’buda, temirchilar piri; Ikkinchi o‘g‘li Ares – qonli urushlar ma’budi; Latona – zulmat ma’budasi, uning o‘g‘illari Apollon – yorug‘lik, san’at, she’riyat, muzika ma’budi ekanligi; uning singlisi Artemida – qamar ma’budi, o‘rmonlar va u yerda yashovchilar ma’budasi; Afina – shaharlar homiysi; Olimpning qizi Afrodita va uning o‘g‘li Erot – sevgi va go‘zallik ma’budi; Germes – ma’budlar jarchisi, savdogar va sayyohlar homiysi; Gelios – Quyosh ma’budi ekanligi va bu ma’budlarning odam qiyofasida tasavvur etilishi va tasvirlanishi [1] mifologik fantastikaning oliy namunalaridir.

Yoki mir Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida tasvirlangan Iskandar ko‘zgusi, Jamshid jomi; Axriman dev, quyosh qilichi, Suqrot hakimning xilxonasi joylashgan tog‘ (“Bu tog‘ning yonida yer yuzi bir uyum tuproqning o‘zi”, “Bu tog‘ning buyukligi to‘qqiz osmoncha, etagining doirasi kengligi ikki jahoncha edi” deydi shoir); Farhodning kelishini besh yuz yildan beri kutib turgan Suhaylo va h.

Keltirilgan misollarning barchasi – fantastika. Ya’ni badiiy fantastikaning ko‘rinishlari. Demak, inson fantaziyasi uning tarixi singari qadilmiydir. Biroq fantaziya qilish qobiliyati inson bilan birga tug‘iladi, deb bo‘lmaydi. Sababki, tasavvur qilish tafakkur singari obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar, imkoniyatlar va ehtiyojlar, ijtimoiy-kommunikativ sabablar ta’siri ostida paydo bo‘ladi. Zero, jamiyatning ibtidoiy rivojlanish davrida inson fantaziyasi sodda va oddiy bo‘lgan. U darajada boy ham bo‘lmaganligi manbalardan ayon. (Masalan, insonning qanot yasab osmonga uchishi: “Dedal va Ikar” va h.) Ijtimoiy ong evolyutsiyasi, zamonlar almashinuvi (bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning boshqasi bilan almashuvi) inson dunyoqarashini (ham salbiy, ham ijobiy jihatdan) yuksaltirdi, fikrlash doirasini kengaytirdi, chuqurlashtirdi, sayqalladi, takomillashtirdi. Natijada insoniyat xayoloti murakkablashdi, boyidi, “konstruktiv”lashdi. Inson zoti shunday murakkab mavjudlikki, u faqat tasavvur etish, orzu qilish, umuman, fantaziya bilan chegaralanib qolmaydi. U yillar davomida izlanadi, fantaziylarining ro‘yobi uchun bosh qotiradi. Xalq og‘zaki ijodida aytilgan “uchar gilamlar”, “qanotli otlar”, “ochil dasturxonlar”, “tiriklik suvi”, “uzuk ko‘zida butun olamning aks etishi”, “sehrli meva”, “sehrli tayoqcha” kabilar inson zotini kashfiyotlar sari yetakladi, bugun ular real voqelikka aylandi.

Ta’kidlash joizki, badiiy fantastika yillar o‘tgani, ilm-fan rivojlangani sayin ilmiylashib bormoqda. Fantastik asarlarda endi shunchaki “uchar gilam” yoki “uchar supurgi”lar emas, o‘n sakkiz ming olamni aylanib chiqa oluvchi fazoviy kemalar tasvirlanadigan bo‘ldi. Endi shunchaki qiyomat emas, yadro urushining tuzatib bo‘lmas, ayanchli va azobli oqibatlarini insoniyat qismatining fojiali tasvirlari orqali bayon etilyapti. XXI asr kishilarini endi «bir bor ekan, bir yo‘q ekan», tarzidagi gaplar

bilan ishontirib bo'lmaydi. Fantast yozuvchi XXV yoki XXX asrdagi voqeaga o'quvchini ishontirishi zarur. Buning uchun ijodkorga faqat badiiy adabiyotga doir mahorat kifoya qilmaydi, fantast yozuvchi, avvalo, aniq fanlar tarixi va kelajagidan ham mustahkam bilimga ega bo'lishi talab etiladi. Tabiiyki, bu oson ish emas.

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotida Tohir Malik (Tohir Hobilov)ning "Somon yo'li elchilari", "Falak", "Hikmat afandining o'limi", "Oyga safar" qissalari, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" romanlari, Hojiakbar Shayxovning "Rene jumbog'i" asarlari fantastika janrida yaratilgan va ayni zamonda o'z o'quvchisini topgan asarlar sanaladi. Fantastika badiiy yozma adabiyotdan tashqari folklorda, falsafiy utopiyada, kino va teatrdan, tasviriy san'atda, (hatto she'riyatda) ham mubolag'alarga boy, bo'rttirishlardan yaralgan holda aks ettiriladi. Fantastika syujet qurilmalari va ramziy ma'nolarda ifodalangan ekan, muallifning yoki bir davrning dunyoqarashi, turmush tarzi va undagi muammolar mo'jizali, g'ayritabiiy shaklda tasvirlanishi bilan e'tibor tortadi.

Ilmiy fantastika janrining paydo bo'lishi va taraqqiyotini mutaxassislar sehrli ertaklar bilan bog'laydilar. Ilm-fan taraqqiyotida katta kashfiyotlar, odatda, olim xayolida paydo bo'lgan reja – gipotezadan boshlanadi. Gipoteza asta-sekin rivojlanadi va hayotga tatbiq etilishining loyihasi shakllanadi. Olim ana shu loyihaning ilmiy zaminini topganidan so'ng kashfiyotning amalga oshishi uchun sharoit yaratilgan bo'ladi. Sehrli ertaklar bir jihatdan inson ongida yaratiluvchi ana shu gipotezalar yo'nalishini boshqargan, deb xulosa qilish uchun yetarli asos bor. Gap shundaki, bugungi kunda oddiy hayot haqiqatiga aylangan velosipeddan tortib avtoullov, poyezd, samolyotlar; telefon, telegraf, radio, televideniye, elektr chiroqlarning kashf etilishini bevosita ertaklarda aks etgan orzular bilan dalillaymiz. Uyali telefonni aytmayisizmi, to'quv dastgohlari, har xil kimyoviy, fizikaviy kashfiyotlar bosqichma-bosqich tahlil etilsa, ularning hammasini biz biroz oldinroq sehrli ertaklar voqealarida uchratganimizga amin bo'lamiz [3].

Sehrli ertaklar bosh qahramonga nimadir (ko'pincha, farzand) yetishmasligi, salomatligini tiklab olish yoki qahramonning yetishmayotgan narsasiga ega bo'lishi (birdan boyib ketish, podshohga yoki malikaga aylanish, yosh yigit yoki suluv qizga aylanib qolish), unga nimadir qilishning (gapirish, alohida bir eshikni ochish, biror narsaga qarash va h.k) taqiqlanishi, taqiqning buzilishi, kuchli raqibga duch kelish, xavfli safarga chiqish, safar yakuni, raqib bilan olishuv, murod-maqсадga yetish kabi lavhalardan iborat bo'ladi. Taniqli olim Vladimir Propp yuqoridagi tartibning jahon xalqlari ijodidagi sehrli ertaklar matni tarkibini tashkil qiluvchi asosiy unsurlar ekanini chuqur ilmiy asosda misollar bilan isbotlab bergan. Yuqorida qayd etilgan mulohazalardan g'ayritabiiy mo'jizalar ro'y berishi, afsungarlik, sehrli voqealar, bir narsaning ikkinchisiga aylanishi, bular hammasining muayyan tizim (V.Y.Propp tavsiyasi) tartibida hikoya qilinishi sehrli ertaklar xususiyatini hosil qiladi [4].

Ha, inson zotini (u qaysi millat vakili bo'lishidan yoki tafakkur tili qanday bo'lishidan qat'i nazar) bolaligida eshitgan sehrli ertaklari kelajak tomon, yaratish, tuzish, borini mukammallashtirish sari yetaklayverdi, yetaklayverdi. Jamiyatdagi o'sish, ertaklarning haqiqatga aylana borishi natijasida XIX asr o'rtalarida jahon adabiyotida yuksala borgan va alohida janr sifatida tan olingan ilmiy fantastika janri

XX asrda keng taraqqiy etdi. Bugungi XXI asrning ikkinchi o'n yilligiga kelib esa u "kelajakning ilmiy bashoratlari" sifatida talqin etilmoqda.

Ilmiy fantastikaning asosiy vazifasi muayyan sohada yoki umumiy tarzda kelajakni bashorat qilish, ilmiy gipotezalarni ishonchli tarzda badiiy ifodalashdan iborat. Bu har qanday ijodkorning ham qo'ldan kelavermaydigan g'oyatda mushkul vazifa.

Davrimiz kishilari orasidan "hammaga yoqadigan bir yarimta gap"ni topib gapirish barcha soha egalari uchun emas. Shunday sharoitda kishilar e'tiborini kitobga tortish, boz ustiga uni o'ziga "qayta-qayta bog'lab olish"– qiyin masala. Nazarimizda, bu vazifani ilmiy fantastika janri ijodkorlari uddalashgan va uddalashmoqda.

Hozirgacha ilmiy fantastikaning tematik kenligi, yondashuvlar ko'lami quyidagi mavzulardan iborat:

kosmosga sayohat – ushbu yo'nalishda yozuvchilar Quyosh tizimiga yaqin bo'lgan sayyoralar va ularga amalga oshirilgan parvozlar haqida yoki sayyoramizga yaqin bo'lgan yulduzlar to'g'risida yozishadi. Mazkur mavzu doirasidagi asarlarda yerliklarning turli sayyoralarni egallab olishlari kabi sarguzashtlar yoritib beriladi;

vaqt mashinasi bilan sayohat – ilmiy fantastikaning eng ommalashgan mavzulardan bo'lib, bunda vaqt mashinasi ixtiro qilinadi va kelajakka yoki insoniyat tarixiga sayohat uyushtiriladi;

parallel olamlar siri – bunday uslubda yaratilgan asarlarda bizga parallel bo'lgan olamlar, sayyoralar haqida yoziladi. Mazkur olamlarning turli-tumanligi va kelib chiqish tarixi haqida bayon etiladi. XX asrning boshlarida ijod qilgan yozuvchilarning asarlarida bizga parallel bo'lgan olamlar haqida yoki mutantlar haqida yozish keng tarqaldi [2];

evolyutsiya yoki insoniyatning mutatsiyaga uchrashi – bu mavzudagi asarlarda kelajakda insoniyatning ilohiy, mo'jizaviy qudratga ega bo'lishi, yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishi, shuningdek, psixologik -telepatiya va prokinez hodisalari tasvirlanadi;

jamiyatni yangicha modellashtirish – mazkur mavzuda yaratilgan asarlarning eng mashhuri Tomas Morning "Utopiya" romani hisoblanadi. Mazkur asarda turli ijtimoiy muammolarning yechimini ko'rsatish uchun idealogik jamiyat tasvirlangan. Bunday asarlar sirasiga turli jamiyat shakllari haqidagi hikoyalar, hozirgi kunda, zamonaviy jamiyatimizda, mavjud lekin Yerning izolyatsiya qilingan qismlarida: Tibetdagi vodiylarda, Tinch okeanining chekka orollarida sodir bo'ladi. Bunday adabiy asarlar kreptio-tarixiy asarlar deb nomlanib, unda zamonaviy qandaydir sirli kuchlar ta'sirida rivojlanish jaryonlari aks etadi;

robotlar, androidlar, mustaqil fikrlovchi kompyuterlar haqidagi g'oyalar zamonaviy ilmiy fantastik yo'nalishning asosiy mavzularidan sanaladi;

sayyoralar o'rtasidagi urushlar bunday g'oyalardagi asarlarda yerning asosiy yirik kuchlari to'qnashuvi, sayyoralararo urushlar, global yadroviy mojarolar va konfliktlar tasvirlanadi [5].

Ilmiy fantastika janrining bosh obrazi doim taraqqiy etuvchi, rivojlanuvchi inson timsolidir. Bu qahramon evolyutsion rivojlanuvchi, taraqqiy etuvchi odamning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon adabiyoti tarixi (I.Jabborov tahriri ostida). – Qarshi, 2013.
2. Осипов А. Н. Фантастика от «А» до «Я». – Москва, 1999. – Стр.198.
3. Пропп В.Я. Фольклор и действительность. – Москва: Наука, 1976. – 327 с.
4. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Москва: Лабиринт, 2000. – 336 с.
- 5.Чернышева Т. Научная фантастика и современное мифотворчество. – Москва: Наука, 1989. – Стр. 25-27.
- 6.Шайхов Х. XX асрнинг энг яхши асарлари// *Хуррият*, 1999. –12 май.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Fantastika>

O`TKIR HOSHIMOVNING “BAHOR QAYTMAYDI” QISSASIDA MILLIY PORTRET IFODASI

Hayriyeva Nargiza Ixtiyor qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O`tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasidagi milliy portret ko`rinishlari haqida so`z boradi. Maqolada obrazlar tahlili asosiy o`rin tutadi. Dialog vositasida ham obrazlar xarakteri ochib beriladi.*

Kalit so`zlar: *portret, milliy portret, personaj, obraz, prototip, xarakter, tip.*

Аннотация: *В данной статье говорится о взглядах на национальный портрет в рассказе Уткира Хашимова «Баҳор қайтмайди». Анализ изображений занимает главное место в статье. Характер героев раскрывается также через диалог.*

Ключевые слова: *портрет, национальный портрет, персонаж, образ, прототип, персонаж, тип.*

Abstract: *This article talks about views on the national portrait in Utkir Khashimov's story “Bahor qaytmaydi”. Image analysis takes center stage in the article. The character of the characters is also revealed through dialogue.*

Key words: *portrait, national portrait, character, image, prototype, character, type.*

Elimiz ardog`idagi so`z ustasi, atoqli va adabiyotshunos Abdug`afur Rasulov ta`biri bilan aytganda “ardoqli adib”, O`zbekiston xalq yozuvchisi O`tkir Hoshimov hikoyachilik, ham qissachilik va romannavislikda birdek qalam tebratgan ijodkor sanaladi. Ayniqsa, xalqimiz ong-u shuuriga, yurak-yuragiga singib ketgan takrorlanmas, o`zbeklarning o`zbekligini eslatib, anglatib turuvchi jihatlarni qamragan qadrdon hikoya-yu romanlari, qissa va hajviyalari birdek sevimli va qadrdon.

O`tkir Hoshimovning qissachilikdagi milliy portret yaratish mahorati haqida bahs yuritar ekanmiz, “Sevgi qissalari” [1] turkumidan joy olgan “Bahor qaytmaydi”, “Cho`l havosi”, “Sirli yulduz”, “Shamol esaveradi”, shuningdek, “Qalbingga quloq

<i>Umarova Mohim</i> ILMIY FANTASTIKANING ASOSIY VAZIFASI	554
<i>Xayriyeva Nargiza</i> O`TKIR HOSHIMOVNING “BAHOR QAYTMAYDI” QISSASIDA MILLIY PORTRET IFODASI.....	559
<i>Avg`onova Gulnoza</i> MUQIMIY LIRIKASIDA REALISTIK TASVIR MAHORATI.....	564
<i>Dildora Muhammadjonova</i> AN INSIGHT INTO THE PERSONALITY OF ALEXANDER FEINBERG.....	570
5-sho`ba. TA`LIM TIZIMIDA BUXORO ADABIY MUHITI VAKILLARI IJODINI O`RGANISH VA O`QITISH MUAMMOLARI	
<i>To`rayeva Umriniso</i> ABDURAUFI FITRAT IJODINI O`QITISH MUAMMOLARI.....	573
<i>Sariboyeva Maqsuda</i> O`QUVCHILARNING AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA HADISLARDAN FOYDALANISH.....	575
<i>Ulug`murod Amonov, Shahlo Saparova</i> THE METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF SADRIDDIN AYNIY`S AUTOBIOGRAPHICAL TALE “ESKI MAKTAB” IN TEACHING CHILDREN`S LITERATURE	579
<i>Ravshanov Maxmud</i> СОЗДАНИЯ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИХ СЛОВАРЕЙ НА ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ УРОВНЯХ.....	583
<i>Karimova Shaxnozaxon, Usmonova Mushtariy</i> INGLIZ TILINI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI	590
<i>Berdiev Xusan</i> ТИЛ ТАЪЛИМИДА УМУМФИЛОЛОГИК МАНБАЛАРНИНГ ЎРНИ.....	593
<i>Po`latxo`jayeva Malika</i> RIVOJLANISHIDA NUQSONI BOLGAN BOLALAR PARVARISHIDA TIBBIY PSIXOLOGIYANING O`RNI.....	596
<i>Ruziyeva Nilufar, Safarova Sabrina</i> THE BENEFITS OF INTEGRATING READING AND WRITING IN THE CLASSROOM ACROSS DISCIPLINES.....	599
<i>Farangis Murodova</i> IBN SINO ASARLARIDA MILLIY MA`NAVIY MEROSNING BOLA TARBIYASIDAGI AHAMIYATI.....	603
<i>Ibrohimova Mohichehra</i> ONA TILI VA O`QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MATNLAR BILAN ISHLASH ORQALI MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	606
<i>Matkarimova Sayyora</i> BOSHLANG`ICH SINFI O`QISH DARSLARIDA ERTAK O`QITISH METODIKASINING ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALARI.....	610
<i>Raxmatullayeva Nilufar</i> TA`LIM TIZIMIDA BOSHLANG`ICH SINFI ONA TILI DARSLARINI O`QITISHDA DIDAKTIK O`YINLARNING O`RNI VA AHAMIYATI.....	614
<i>Aganiyazova Aziza</i> FITRAT IJODI VA YOSH AVLOD TARBIYASI.....	618
<i>Karshieva Raixona, Ravshanov Maxmud</i> ЦИФРОВИЗАЦИИ И ЭВОЛЮЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ КУРСА.....	620

Ilmiy nashr

**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**

mavzusidagi

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi:
Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli. «Times New Roman» garn.
Offset bosma usulida chop etildi. Offset bosma qog'ozi.
Bosma tabog'i 12,2. Adadi 40.

“Fan ziyosi” nashriyoti
Bahosi kelishilgan holda.
“Dunyo poligraf plyus” X/K
bosmaxonasida chop etildi.

Mustaqillik ko'chasi 21-uy, Tel.: (91) 416-50-09